

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish  
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari**

Toshkent-2023

ЎЗР ОУМТБ

Ейлапыс № 367

21.08.2023

**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ning 2023 yil  
«21» 08 dagi 364 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....</i>	4
1.2.1.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....</i>	4
1.2.3.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlar, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar</i>	7
2.3.2.	<i>60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi</i>	7
2.4.	Kvalifikatsiya.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varaqasi.....	10
	Kelishuv dalolatnomasi.....	11



**1. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish** bakalavriat ta'lim yunalishi - zamonaviy suv tejankor innovatsion texnika va texnologiyalar jabxasiga oid ta'lim soxasi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar doirasida tabiat va uning resurslarida tejamlil va samarali foydalanish, suv resurslarini aniq boshqarish va ulardan turli maqsadlarda samarali foydalanishni tashkil etish, irrigatsiya-melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi tizimlarini loyihalash bo'yicha bilimlarga, kasbiy ko'nikmaga va mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, uslublarining majmuasini qamrab oladi;

**1.2.2. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- irrigatsiya tizimlaridagi suv xo'jaligi inshootlar, obyektlar hamda suv va yer resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq faoliyatlarning ekologik bezarar uslublari va texnologiyalari;

- irrigatsiya tizimlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha dasturlar, standartlar normativ-huquqiy hujjatlar, ma'lumotlar, hisobotlar;

- irrigatsiya tizimlarida ishlatiladigan zamonaviy asbob-uskunalar, innovatsion texnika va vositalar, laboratoriya asbob - uskunalari;

- sug'orish va kollektor - drenaj tizimlari, suv omborlari, nasos stansiyalar va boshqa suv



xo'jaligi inshootlari va innovatsion sug'orish tizimlari.

**1.2.3. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyihaviy-texnologik faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

**1.2.4. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish ko'nikmasi va ularga tayyorlik;
- muammolarni hal etishga va qaror qabul qilishga tayyorlik, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javobgarlik;
- mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va modellashtirish, boshqarish va sifatini yaxshilash uchun bilim va mahoratdan foydalana olish;
- respublika va horijda innovatsion texnologiyalarga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun tayyorgarlik ishlarida va uni bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- irrigatsiya va melioratsiya soxasidagi suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish yo'nalishida ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish.

**Loyihaviy-texnologik faoliyatida:**

- suv resurslaridan samarali foydalanish va mavjud suvdan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish xamda ularni tizimli yondashuv asosida innovatsion texnologiyalar bilan takomillashtirish tadbirlarida ishtirok etish;
- zamonaviy sug'orish tizimlarni hamda innovatsion texnologiyalarni loyihalash va amalga oshirish;
- o'z faoliyatida axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini ixtisosligiga mos ravishda qo'llash;
- innovatsion suv tejamkor sug'orish texnologilardan foydalanish samaradorligini oshirish takliflarini ishlab chiqish, texnika va texnologiyalar uchun uskunalar, moslamalar va zaruriy jihozlarni tanlash, bajariladigan ishlarni sifatini oshirish usullarini takomillashtirish;
- innovatsion resurs tejamkor sug'orish va meliorativ tizimlarni hamda texnologiyalarni loyixalash va amalga oshirish;
- irrigatsiya va melioratsiya soxasidagi suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish yo'nalishida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish.

**Ishlab chiqarish faoliyatida:**

- irrigatsiya soxasidagi innovatsion texnologik jarayonlarni tashkil etish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash na qo'llash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni innovatsion rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.



### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- irrigatsiya soxasida ishlab chiqarish faoliyatini innovatsion boshqarish xamda rivojlantirish;
- suv xo'jaligi soxasi ishlab chiqarishida innovatsion texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini xisoblash va baxolash;
- ishlab chiqarishda xayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayonlar va resurslarini rejalashtirish;
- innovatsion axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muxofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- soxaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baxolash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muxit muxofazasi, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatlariga ega bo'lish lozim.

## **2. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi;
- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- suv tejamkor innovatsion texnika va texnologiyalarni loyixalashda qurilish me'yorlari qoidalari xamda boshqa me'yoriy xujjatlar, suv tejamkor sug'orish zamonaviy innovatsion texnika va texnologiyalari, usuli va elementlarini tanlash, sug'orish tarmoqlarini joylashtirishning texnik - iqtisodiy qulay variantlarini topish.
- irrigatsiya tizimlarda sug'orish gidromodulini aniqlash, qishloq xo'jalik ekinlarni sug'orish tartibini belgilash, sug'orish texnologiyasi, usuli va texnikasi elementlarini aniqlash, irrigatsiya va melioratsiya tizimlaridan oqilona foydalanish, suvdan foydalanish rejalarni tuzish



va texnik-iqtisodiy qulay variantlarini topish.

- gidromeliorativ tizimlar foydalanishda, fermer xo'jaliklari buyurtmasi bo'yicha olib borilgan gidromeliorativ tizimlar monitoringi va ilmiy - tadqiqotlar asosida irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini oqilona boshqarish uchun ko'rsatma - tavsiyalar ishlab chiqish.

- irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ishlash xolatini taxlil qilish, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ilmiy asoslangan xolda takomillashtirish, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ishlash sifatini oshirish jarayonida innovatsion ilmiy-tadqiqotlarni olib borish usullari, gidromeliorativ tizimlaridan foydalanish jarayonlarining matematik modellarini tuzish.

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofik kasb faoliyati soxalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari xaqida tasavvur xosil qilish;

- me'yoriy - huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish.

### **2.3.Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, amallarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulotlar va akademiy vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yunalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar - ta'lim yunalishi dorasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigina, shuningdek talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab - quvvatlashgan qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi.

malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliyo ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

pedagogik amaliyot- pedagogik maxoratni oshirishga qaratiladi.

#### **2.3.1. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlar, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlar, bloklar va faolitya turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soatlar	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4740	158
Tanlov fanlar	1530	51
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	210	7

#### **2.3.2. 60813000 - Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

t/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlar, bloklar va faolitya turlarining nomlari	Umumiy yuklama xajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4740	158	
1.01	XT1110	Xorijiy til	300	10	1,2
1.02	MAT1115	Oliy matematika	450	15	1,2,3
1.03	OYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.04	IG1105	Injenerlik geodeziyasi	150	5	1
1.05	JTS1105	Jismoniy tarbiya va sport	150	5	2
1.06	FAL1104	Falsafa	120	4	2



1.07	FIZ1105	Fizika	150	5	3
1.08	TIL1105	O'zbek(rus) tili	150	5	3
1.09	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	3
1.10	NM2105	Nazariy mexanika	150	5	4
1.11	SAB2105	Suv xo'jalik kompleksida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari	150	5	4
1.12	HFX2105	Hayot faoliyati xavfsizligi	150	5	4
1.13	GME2105	Gidrometriya	150	5	5
1.14	TDE2105	Tuproqlar degradatsiyasi	150	5	5
1.15	AT2105	Axborot texnologiyalari	150	5	5
1.16	ID2105	Injenerlik dizayn	150	5	6
1.17	MTF2106	Melioratsiya tizimlarda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish	180	6	6
1.18	GGI3105	Gidravlika va gidroinformatika	150	5	7
1.19	STM3110	Sug'orish tartiblarini model-lashtirish	300	10	7,8
1.20	GT3110	Gidromeliorativ tizimlardan avtomatlashtirish	300	10	8,9
1.21	NTQ3105	Nasos stansiyalarida resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash	150	5	8
1.22	IM3105	Irrigatsiya va melioratsiya	150	5	9
1.23	SFM3105	Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularning muxofazasi	150	5	9
1.24	RST4110	Resurs tejamkor sug'orish texnologiyalari	300	10	10,11
1.25	GTF4110	Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish	300	10	10,11
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1530</b>	<b>51</b>	
		<i>Tanlov fanlari (13 ta fan)</i>	1530	51	4,5,6,7,8,9,10,11
		<b>Jami</b>	<b>6270</b>	<b>209</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>720</b>	<b>24</b>	6,9,12
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>210</b>	<b>7</b>	12
		<b>Jami</b>	<b>930</b>	<b>31</b>	
		<b>XAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

#### 2.4.Kvalifikatsiya: muhandis-gidrotexnik



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabxasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka amaliyot, attestatsiya, profil, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri menejment, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.